



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxkarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliv kengashi huzuridagi Sudyalar oliv maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning
dolzARB muammolari**” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga
olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i>	
FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i>	
SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i>	
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Сойиб Раупов</i>	
KAMBAFAALLIK VA UNI ҚИСҚАРТИРИШ MUAMMOLARI	33-42
<i>Abdimo'minov Oybek Bektemirovich</i>	
MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARINING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i>	
ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i>	
SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i>	
KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромовиҷ</i>	
ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжсаниязов Элбек Сардорович</i>	
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i>	
O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i>	
QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Abdurahmanov Muxtora</i> ХУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKİSTONDA INNOVATSIYALARНИ RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPSION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Гайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ФОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i>	
O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIKA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdukarimovna</i>	
BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i>	
IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i>	
MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i>	
СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i>	
БУРХОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i>	
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "КО'К" SIFAT BELGISINING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i>	
HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i>	
ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i>	
XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLLILI	264-268
<i>Davronov Shekroz Abrorovich</i>	
OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i>	
NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i>	
К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i>	
O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i>	
INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Tухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i>	
ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i>	
XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i>	
YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i>	
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i>	
O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i>	
INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Аманазарова Шохида Бахрамовна</i>	
РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliquovna</i>	
ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i>	
SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i>	
RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i>	
ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i>	
ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Kommina Xursanovna</i>	
O'ZBEKİSTON İJTİMOİY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQİDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i>	
ONA TİLİ DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLİL QILISH METODİKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Imomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’MINLOVCHI TO’LOV – MAJBURIYATLARNI TA’MINLASHNING YANGI USULI SIFATIDA	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНинг ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЎЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ	437-445
<i>Miqitov Bobur</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To’ychiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTALARIGA BO’LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farxod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE	479-484
<i>Юсупов Ўқтамбай Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o’g’li</i> O’ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI	509-520

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> SPORT MASHG’ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO’LLARI VA TAMOYILLARI	521-531
--	---------

<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i>	
OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	532-537
<i>Қаршиева Дилбар Эшупулатовна</i>	
ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	538-542
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i>	
KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	543-547
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i>	
O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	548-556
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i>	
SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	557-562
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i>	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	563-574
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i>	
MATEMATIKA FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	575-582
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i>	
SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	583-587
<i>To'xtayev Hasan Toshpo'latovich</i>	
ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	588-591
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	592-599
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTHSIOLOGIK TAHLIL)	600-607
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i>	
МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	608-611
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i>	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEHNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	612-618
<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIMGA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLLILLAR	619-623

<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i>	
O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI	624-628
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i>	
JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI	629-634
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i>	
ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	635-640
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i>	
МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	641-647
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i>	
ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	648-653
<i>Ахмедова Уктамхон</i>	
РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	654-659
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i>	
TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	660-664
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i>	
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	665-670

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

THEORIES OF MEDIEVAL CENTRAL ASIAN THINKERS ON INSTRUMENTAL STUDY: MUSICAL RESEARCHES OF ABU NASR FARABI

Ruzimurodov Ilyos Azamat ugli

Senior Lecturer of Department "Music Education",

Nordic International University

E-mail: ruzimurodov.ilyos@bk.ru

Abstract. The description of musical treatises created in the Middle Ages is unique and contains important information about the art of music. These treatises provide an overview of the basics of music theory. This article analyzes the views of Abu Nasr Farabi on musical science.

Keywords: Middle Ages, Central Asia, instrumental studies, musical sounds, music, tone, scale, intervals, musical composition.

O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI

Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li

Xalqaro Nordik universiteti

"Musiqa ta'lumi" kafedrasи katta o'qituvchisi

Annotatsiya. O'rta asrlarda yaratilgan musiqiy risolalarning bayoni o'ziga xos bo'lib, ularda musiqa san'atiga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolalarda musiqa nazariyasining asoslari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning musiqa ilmiga oid qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'rta asrlar, Markaziy Osiyo, cholg'ushunoslik, musiqiy ovozlar, musiqa, ton, o'lchov, intervallar, musiqali kompozitsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N89>

Kirish. Musiqiy cholg'ularning sodda ko'rinishlari insoniyat jamiyatining ilk bosqichlarida paydo bo'lgan. Dastlab, hali tabiat hodisalarini anglab yetmagan davrlarda inson ko'p jihatdan ojiz bo'lib, o'zini muhofaza qilishi uchun zarur bo'lgan vositalarni topish yo'lida ko'p xavf-xatarlarni boshidan kechirgan. Ibtidoiy odam dastavval o'ldirgan o'ljasiga qorin to'yg'izish manbai sifatida qaragan bo'lsa, sekin-asta insonning aqliy tafakkuri rivojlanishi idrok va hissiyot doirasini kengaytirib borgan. Pirovardida, u hayvon terisini – ichi bo'sh buyumlarga qoplagan, qurigan ichakni esa yog'ochga tortib, ularning barchasini sadolantirishga harakat qilgan. Buning zamirida ilk musiqiy qurollar paydo bo'lib, sekin-asta sodda musiqiy qurol – musiqa cholg'usiga aylangan. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti davomida zarbli cholg'ular (qayroq, doul, daf, nog'ora, doyra (childirma, chirmanda), qoshiq, zang, safoil

va h.k.), damli cholg'ular (bug' (burg'), ushullak (loy xushtak), sibiziq, shuvildoq, g'ajr nay, karnay, surnay va h.k.), torli cholg'ularning dastali ko'rinishlari (ud, dutor, g'ijjak, tanbur va h.k.), arfasimon ko'rinishlari (sanj, jank, chang, chiltor, kannora) va qutisimon ko'rinishdagi cholg'ular (mizafa, nuzha, mug'anniy, qonun, santur) yuzaga kelgan [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sharqda musiqa ilmi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan allomalar orasida Abu Abdulloh Xorazmiyning alohida o'rni bor. Ushbu allomaning hozirgacha faqat birgina ("Ilmlar kalitlari") nomli asari saqlanib qolning bo'lib, ushbu asar turli soha olimlari tomonidan muallif yashagan davr fani ko'pgina sohalarining tarixiy terminologik majmuasi sifatida tan olingan. Ushbu asar tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga qaratganiga ancha vaqt bo'lgan. Uning arab tilidagi asl nuxsasi 1895-yilda Londonda nashr etilgan bo'lib, bir qancha boblari boshqa tillarga tarjima qilingan. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning musiqa ilmi va san'atiga bo'lgan munosabatlari to'g'risida Ibn Sino o'zining "Aqliy ilmlar qismlari" risolasida ma'lumotlar keltirib o'tgan. Xususan, Xorazmiy tomonidan yaratilgan, ishonarli manba sifatida uning "Mafatihu-l-ulum" asari ko'rsatiladi va ushbu kitobdan iqtiboslar keltiriladi [5].

Bizning davrga kelib, o'tmish cholg'ushunoslik asarlarini yozish an'anasi qimmatli ma'lumotlar bilan bog'lovchi jarayonlar yanada rivoj topdi, turli sohalarda yangidan yangi kitoblar yuzaga keldi. Xususan, respublikamiz olimlari tomonidan ham Abu Abdulloh Xorazmiyning bu asari yuzasidan oz bo'lsa-da tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafatihu-l-ulum" asarida poetika haqida juda qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, zamonamizning musiqashunos va sharqshunos olimlaridan T.S.Vizgo o'zining "Музыкальные инструменты Средней Азии: Исторические очерки" kitobida "Mafatihu-l-ulum"da keltirilgan musiqiy cholg'ular va Xorazmiyning unga munosabatlarini qisqacha bo'lsa-da, bayon etgan. Is'hoq Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" ilmiy monografiyasida Xorazmiy va uning "Mafatihu-l-ulum" risolasi haqida o'z fikrlarini bayon etadi. Manbashunos olim Zokirjon Oripov "Sharq musiqiy manbashunosligi" monografiyasida Xorazmiyning ilmiy merosi va "Mafatihu-l-ulum"ning tarkibidan o'rin olgan fasllar, qo'llangan musiqiy atamalar xususida fikrlar bayon etadi. Biroq, Xorazmiy "Mafatihu-l-ulum" asaridagi o'sha davrda mashhur bo'lgan musiqiy cholg'ular, musiqa nazariyasi va usullar (iyqo') masalasiga doir maxsus risola yoki tadqiqotlar uchramaydi [1].

Mazkur mavzuda metodologiya asosan ilmiy tahlil va tarixiy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan. Abu Nasr Forobiyning musiqiy tadqiqotlarini o'rganishda uning asarlari, jumladan, "Kitob al-musiqa al-kabir" asari asosiy manba sifatida tanlanadi. Tadqiqot jarayonida musiqiy nazariya va cholg'ushunoslik bo'yicha qadimgi va o'rta asr ilmiy yondashuvlarini o'rganish va ularni Forobiq qarashlari bilan solishtirish maqsad qilingan. Shu bilan birga, ilmiy-adabiy tahlil orqali Forobiq ijodining Markaziy Osiyo madaniy rivojlanishiga ta'siri o'rganiladi. Mavzu doirasida Forobiyning cholg'u asboblariga oid ilmiy yondashuvlari zamonaviy cholg'ushunoslik bilan taqqoslanadi. Bundan tashqari, tarixiy davr konteksti va madaniy omillarni hisobga olib, tadqiqotlar interdisiplinar yondashuvda amalga oshiriladi. Natijada, Forobiyning musiqiy merosi bugungi ilm-fan va san'at rivojidagi ahamiyati asosida baholanadi [3].

Muhokama va natijalar. Torli cholg'ularning paydo bo'lishi borasida yozma manbalarda turli rivoyatlar va fikrlar keltirilgan. Jumladan, o'rta asr allomasi Ziyor-d-din

Naxshabiy (XIVasr) o‘zining “To‘tinoma” asarida torli cholg‘ularni kelib chiqishi borasida shunday rivoyatni keltirgan: “Kunlarning birida yo‘ldan toliqqan olim daraxt tagiga dam olgani o‘tirib, tasodifan daraxtda o‘tirgan maymunga ko‘zi tushadi va uni kuzata boshlaydi. Daraxtda tinimsiz sakrayotgan maymun bexos uchli shoxga qornini yirtib olib, ichaklari daraxt shoxlariga ilinib qoladi. Daraxt shoxlarida qurib qolgan ichaklar shamolda tebranib, yoqimli ovoz taratayotganidan taajjubda qolgan olim, daraxt cho‘pini egib, unga qurigan ichakni tortadi va cho‘p uchiga qovoq o‘rnatadi. O‘ziga xos bir musiqa cholg‘usi paydo bo‘ladi”. Ushbu rivoyat nafaqat torli cholg‘ularning paydo bo‘lishi, balki insonni yer yuzida moslashib borishida tabiatning o‘zi yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lganligini anglatadi. Sharqda qaysi bir olim o‘z kamolot maqomini topar ekan, musiqaning mo‘tabarligiga befarq bo‘la olmaydi. Natijada bugungi kunda “sharq musiqasi” deb nom olgan arab, fors va turk millatlarining mushtarak xususiyatlariga ega musiqa ilmi vujudga keldi [8].

Jumladan, Abu Yusuf ibn Is’hoq Kindiy (IX asr) “Musiqiy ta’lif to‘g‘risida katta risola”, “Musiqa san‘atiga muqaddima”, “Musiqiy ta’lif qilish san‘ati haqida risola”, “Musiqiy iyqo‘ haqida risola”, Abu Nasr Forobi (IX-X asrlar) “Katta musiqa kitobi”, “Musiqa haqida so‘z”, “Iyqo‘lar tasnifi haqida kitob”, Abu Ali ibn Sino (IX-X asrlar) “Shifo kitobi”, “Donishnoma”, “Musiqa ilmi to‘plami”, Abu Mansur ibn Zayla “Musiqaga oid to‘liq kitob”, Abu Abdulloh Xorazmiy “Ilmlar kalitlari”, Marog‘ali Xoja Abdulqodir Nayiy “Asosiy musiqiy davrlar”, “Kuylar maqsadlari”, Safiuddin Abdulmo‘min Urmaviy “Sharafga loyiq risola”, “Musiqiy davrlar haqida kitob”, Abdurahmon Jomiy “Musiqa ilmi risolasi”, Najmiddin Kavkabi “Musiqa ilmi risolasi”, “O’n ikki maqom bayoniga bag‘ishlangan risola”, Zaynulobidin Mahmud Husayniy “Musiqa ilmi va amallari qonunlari”, Darvesh Ali Changiy “Shodlik tuhfasi” kabi asarlari bilan musiqa ilmining muayyan davri mukammal nazariyasini yaratdilar [9]. Yaqin va O‘rta Sharqda musiqa ilmining rivojlanishida eng ahamiyatli davrlardan biri – Sharq uyg‘onish davri, ya’ni IX-X asrlardir. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu davrda Yaqin va O‘rta Sharqda cholg‘ushunoslik bo‘yicha to‘rt muhim asar yaratildi. Ular sirasiga Forobiyning “Katta musiqa kitobi”, Ibn Sinoning “Musiqa ilmi to‘plami”, Ibn Zaylaning “Musiqaga oid to‘liq kitob” va nihoyat Abu Abdulloh Xorazmiyning “Ilmlar kalitlari” ensiklopedik asarining “Musiqa haqida” atalmish bobo kabilalar alohida ahamiyatga ega. Mazkur to‘rt asar Sharqda mustaqil cholg‘ushunoslik fani vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi [7].

O‘rta asr buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobi (873-950) – Sharq cholg‘ushunoslik ilmining asoschilaridan biridir. Sharqda Forobi yoki Abu Nasr Forobi (G‘arbda — Alpharabius) nomi bilan mashhur allomaning to‘liq ismi sharifi – Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O‘zluq ibn Tarxon al-Forobi at-Turkiy al-Muallim as-soniydir. Bu to‘liq ismi sharifda Abu Nasr kunyadir, Muhammad — uning o‘z ismi, Muhammad — otasining ismi, O‘zluq — bobosining ismi, Tarxon — katta bobosining ismi, Forobi — uning tug‘ilgan joyi Forobga nisbat qilib olinganligi bo‘lsa, Turkiy — uning kelib chiqishi turkiy ekaniga ishora va al-muallimu-s-soniy (ikkinci muallim) zamondoshlar va xalaflar tomonidan berilgan yuksak ilmiy unvondir. Abu Nasr Forobi juda boy ilmiy-ijodiy meros qoldirdi. U mantiq, nafs, siyosat, riyoziyot, kimyo, falsafa, musiqaga oid asarlar yozdi. Taniqli tadqiqotchi, ingliz sharqshunos-musiqashunosi G.Farmer esa 11 ta asarni Forobiyning sof musiqiy risolalari yoki bilvosita musiqaga aloqador asarlar, deb bilgan. G.Farmer ma’lumotlariga ko‘ra, Forobi musiqa nazariyasiga doir bir qancha asarlar yozgan. G.Farmer Forobiyning musiqaga doir qiziqarli, nazariy materiallarni o‘z ichiga olgan asarlarining arab va lotin tilidagi nuxsalarini o‘rganib,

kitob holida nashr etgan. Farmerning Forobiy musiqa nazariyasi haqidagi kitobi “Forobiyning musiqa haqidagi arabcha — lotincha asarlari” nomi bilan 1934-yilda e’lon qilinib, 1960-yilda qayta nashr etildi. Unda bir necha yillik tadqiqotlar umumlashtirilgan. Ko’pchilik olimlar bergen va bir qator manbalar ko’rsatgan ma’lumotlarga ko’ra, Abu Nasr Forobiyning bizgacha yetib kelgan asarlari quyidagilardan iborat:

“Katta musiqa kitobi”: bu kitobning to’liq tanqidiy matni nashr etilgan. U to’laligicha faqat fransuz tiliga erkin tarjima qilingan, ba’zi qismlari ko’p tillarga (masalan, o’zbek, qozoq, rus, lotin tillariga) o’girilgan. Xususan, 1840-yilda nemis sharqshunosi Land kitobning cholg’u asboblariga oid qismini lotin tiliga tarjima qilgan. XX asrning 30-yillarda “Katta musiqa kitobi” baron Rudolf D. Erlanje tomonidan fransuz tiliga to’la tarjima qilinib, “Arab muzikasi” to’plamida chop etilgan. Ushbu tarjima orqali Forobiy merosi Yevropada keng joriy qilingan. Uning qo’lyozma matnlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Eng qadimiy matni 1138-yil Ibn Bojja uchun ko’chirilgan bo’lib, Madrid kutubxonasida 602-raqam ostida saqlanmoqda. Shuningdek, “Katta musiqa kitobi”ning 1257-yil ko’chirilgan nusxasi Istanbul kutubxonasida 22-raqam ostida, 1347-yil ko’chirilgan nusxasi Milan kutubxonasida 289-raqam ostida, 1537-yil ko’chirilgan nusxasi Leyden kutubxonasida 1427-raqam ostida saqlanadi. Forobiy tavalludining 1100-yilligi munosabati bilan arab olimlari Zakariyo Yusuf hamda Mahmud Hafniy tomonidan mavjud qo’lyozmalar asosida kitobning mukammal matni tayyorlanib, 1982-yilda nashr qilindi[6]. “Katta musiqa kitobi” ikki qismdan iborat. Birinchisida ushbu ilmning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan bo’lsa, ikkinchisi — o’tmish olimlarining musiqa ilmidagi “xatolariga” izohlar berishga qaratilgan. Kitobning ana shu so’nggi qismi bizgacha yetib kelmagan.

Forobiyning cholg’ushunoslikka oid asarlari orasida “Katta musiqa kitobi” eng mashhuridir. Forobiy bu kitobda musiqaning keng ta’rifini beradi, asosiy tushunchalar hamda musiqa asarlari tarkib topadigan elementlarni ochib beradi. Ba’zi ishonarli ma’lumotlarga qaraganda, Forobiy 925-928-yillar orasida vatanida bo’lgan va Mansur ibn Nuh iltimosiga ko’ra “Ikkinchi ta’lim” deb atalgan juda katta hajmda bir qomusiy asar yozgan. Bu asardan bizgacha uning mantiqiy bir parchasi va shu asar tarkibiga kirgan ikki kitobi yetib keldi. Bu kitoblardan biri “Ptolomeyning al-Magestosiga sharh”, ikkinchisi musiqa bo'yicha “Katta musiqa kitobi”dir. Bularidan shunday xulosa qilish mumkinki, “Katta musiqa kitobi” 925-928-yillar orasida yozilgan va u Mansur ibn Nuhga bag’ishlangan. 1961-yilda Eronning “Musiqiy Eron” jurnalida fors tilida bir necha parcha e’lon qilindi. Fors tilidagi matni asosida uning kirish qismi o’zbek tiliga ham tarjima qilingan. O’rta Osiyo, Eron va arab musiqa san’atini yaxshi bilgan Forobiy xalifalikning bepoyon maydonida keng tarqalgan musiqa asboblari haqida batatsil ma’lumot beradi. Forobiyning musiqa sohasidagi tadqiqotchilar oldiga qo’yan talablari diqqatga sazovor bo’lib, ko’plab tadqiqotlarni talab qiladi [4].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Katta musiqa kitobi” asarining qimmati uning umumiyligi va chuqur g’oyalaridagina emas, balki Forobiy davrida o’rta asr musulmon Sharqi madaniyatining gullab-yashnagan davrida musiqa san’atining ahvoli haqida keng ma’lumot berilishida hamdir. Yuqorida tilga olingan qomusiy allomalarimiz asarlarida cholg’u asboblarning nomlariga va ularning ijro xususiyatlariga berilgan mukammal ta’riflarni ko’rishimiz mumkin. Xorazmiyning “Ilmlar kalitlari” asarida keltirilgan musiqiy cholg’ularning ba’zilari Xorazmiy atagan tanbur, nay, ud, rubob, surnay nomlari bilan bizning davrimizgacha

hech qanday o'zgarishsiz yetib kelganligi o'rta asrlar cholg'ushunoslik ilmining Sharq va Osiyo xalqlarida rivojlanganligidan dalolatdir.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Abu Ali ibn Sino. Tarjimai hol. –Toshkent: 1980.
2. Bahodirov R.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. –Tjirtyn: O'zbekiston, 1995. – 143 b.
3. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. – Toshkent: Fan, 1980. - 208 b.
4. Jomiy A. Risola-yi musiqiy. Fors tilidan Nafas Shodmon tarjimasi. –Toshkent: 1997. – 49 b.
5. Nazarov A. Musiqa ijodiyoti masalalari. Abu Nasr al-Forobi. Kitabul musiqa al-kabir. Arab tilidan tarjima va izohlar. I tom. –Toshkent. 1997.
6. Oripov Z. Abu Abdulloh Xorazmiy – musiqashunos. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2006.
7. Qosimov R. Ud. – Toshkent. 2002. – 48 b.
8. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir – Toshkent. 1963. – 304 b.
9. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006. – 246 b.
10. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarida poetika (Aruz, qofiya, badiiyat ilmi istilohlari tarixiga oid). –Toshkent: TDShI, 2001. – 92 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali**
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro’yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).